

## TOPIC: PERSONAL AND MENTAL DEVELOPMENT OF A CHILD AT DIFFERENT AGES

Dilnoza Safarova Kuchkarovna

Teacher of "Pedagogy, Psychology and Educational Technologies" of Tashkent city;

Alimbekova Madina Abrorovna

Sergeli district 303 - general secondary school practical psychologist

**Annotation:** This article is about child development. That is, in the personal, mental, social development of the child, there is a reflection on what the parents pay attention to and the physical and, conversely, the invisible, that is, the internal changes in the child.

**Keywords:** child, the emergence of aggression in children.

**– Bilgil! Bola tarbiyasi eng muhim ishlardandir. Bola qalbi pok, nozik, sodda va har qanday naqsh va sur'atdan xoli gavhardir. Unga qanday naqsh solinsa, shunga ko'ra shakllanadi, eggan tomonga egiladi. Agar bola yaxshilikka o'rganib, yaxshilik ichida voyaga yetsa, dunyo va oxirat saodatini topadi.**

**Abu Homid G'azzoliy hazratlari**

Ota-ona tarbiyasi orqali bola rivojlanishini rag'batlantirish, boshqa omillar qatorida, bola rivojlanishining yaxshi ko'rsatkichlariga yordam beradi. Bolaning faoliyati, ijtimoiylashishi va rivojlanishida ota-onalar katta rol o'ynaydi. Ko'p ota-onalarga ega bo'lish bolaning hayotiga barqarorlikni qo'shishi va shuning uchun sog'lom rivojlanishni rag'batlantirishi mumkin. Bolalarning rivojlanishidagi yana bir ta'sir qiluvchi omil - bu ularga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik sifati. Bolani parvarish qilish dasturlari bolalikni rivojlantirish uchun foydali bo'lishi mumkin, masalan o'rganish qobiliyati va ijtimoiy ko'nikmalar vaqtga qaraganda ko'proq rivojlanishiga duch keladi. Jismoniy o'zgarishlar hamma uchun ko'rinadi va o'zgarish doirasi va sur'atini ta'kidlaydi. Bu ba'zida o'spirinlar boshqalarga qaraganda ko'proq e'kitlikni his qilishlariga olib keladi. Jismoniy rivojlanishning o'sishi qiz bolalarda o'g'il bolalarnikiga qaraganda ikki yil oldinroq sodir bo'ladi.

Bizga ma'lumki, odamlar intuitiv ravishda boshqalarning harakatlarini istaklar, maqsadlar, his-tuyg'ular, niyatlar, fikrlar va boshqa ruhiy holatlardan kelib chiqqan holda tushunadilar va biz bu ruhiy holatlar bir-biriga qanday ta'sir qilishini tushunamiz, masalan, bajarilmagan istak salbiy his-tuyg'ularni keltirib chiqarishi mumkin va yoki maqsadga erishishga harakat qilishni davom ettirishga turtki berishi mumkin. Bolalarda rivojlanayotgan ong nazariyasi odamlarga qanday munosabatda bo'lishlarini va ulardan nimani o'rganishlarini o'zgartiradi. Kichkintoylar va yosh bolalar odamlar ongida nimalar sodir bo'layotganini va boshqalarning his-tuyg'ulari va fikrlari o'zlariga o'xshash va farq qiladigan narsalarni tushuna boshlaydilar.

Masalan, bir yoshli bolalar onasining so'zlarini "o'qish" uchun kimdir yoki notanish narsaga duch kelganda, onalarining ko'rsatmalariga murojaat qilishadi va bu xavfli yoki yaxshi bo'lmagan notanishlikmi. Kichkintoylar, shuningdek, kattalar ko'z bilan aloqa qilganda, go'dakka yo'naltirilgan tarzda gapirishni (masalan, balandroq ohanglar va ohangdor intonasiyalarni) bilishadi va chaqaloqning xatti-harakatiga qarab javob berishadi. Bunday sharoitda, go'daklar, ayniqsa, kattalar

aytgan va qilayotgan narsalariga diqqat bilan e'tibor berishadi, shu bilan kattalar niyatlari o'rganish imkoniyatlarini aks ettiradigan ijtimoiy vaziyatlarga alohida e'tibor berishadi.

Ta'lim-tarbiya, odob-axloq bolalikdan berilgani ma'qul. Rasululloh (a.s.): "Birontangiz o'z farzandlaringizni tartib-intizomga o'rgatsa, bu har kuni sadaqa bergandan yaxshiroqdir", deya marhamat qilganlar. Bolalarni intizomga o'rgatish oila mustahkamligiga asos bo'ladi. Islom shu ma'noda ota-onalarni o'z farzandlariga sog'lom tarbiya berishga rag'batlantiradi. Hadisi sharifda "Farzandlaringizni hurmat qiling va ularni yaxshi xulq bilan xulqlantiring" deb ta'kidlangan.

Bugun biz tarbiyalayotgan farzandlar vaqt o'tib ertangi hayotimizni boshqaradi. Shu bois barcha olijanob fazilatlarini birinchi galda oilada shakllantirishga e'tibor qaratish lozim. Oila tinch-totuv bo'lsa, ota-ona o'rtasidagi munosabat samimiyat va mehr-muhabbat asosiga qurilsa, tabiiyki, farzandlar odobli, bilimdon va aqlli, mehnatsevar, iymon e'tiqodli bo'lib tarbiyalanadilar. Demak, yoshlarimizning har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, ma'naviyat qo'rg'oni bo'lmish oilani mustahkamlash barchamizning burchimizdir. Zero, oila – avlodlar davomiyligi, qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarni, qolaversa, xalqimiz ma'naviy merosining avlodlardan avlodga o'tishini ta'minlovchi omildir.

Yoshlarning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usini shakllantirishda, har jihatdan barkamol etib tarbiyalashda buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi katta ahamiyat kasb etadi. Zero, hayotning asl mazmun-mohiyatini anglab yetishga o'z umri va salohiyatini bag'ishlagan allomalimizning asarlarida sog'lom avlod tarbiyasi bilan bog'liq masalalarga alohida o'rin berilgan. Sharq allomalari o'z asarlarida farzandlarga tarbiya va ta'lim berish, uni ma'rifatu madaniyatga yetaklash muammolariga e'tibor berganlar. Buyuk mutafakkirlar farzand tarbiyasi, go'zal axloqning inson kamolotiga sabab bo'luvchi yuksak fazilat ekanini ta'kidlaganlar. Jumladan, Imom Buxoriyning "al-Adab al-mufrad hadislar to'plami, Abu Lays Samarqandiyning "Tanbehul g'ofiliyn" asarlarida farzandlarga yuksak insoniy fazilatlarini kamol toptirish tarannum etilgan. Yurtimiz ulamolari o'z asarlarida farzandining chiroyli odobidan umid qilgan ota-ona, uni muntazam ravishda husni xulq asosi bo'lgan muomala odobining quyidagi qirralari bilan tanishtirib borishi muhim ekanini alohida ta'kidlaganlar:

- farzandingiz odamlar bilan muomalada shirinso'z, muloyim, bosiq va kamtar bo'lishiga e'tibor qarating;
- odamlar xursandchiligini baham ko'rish, g'am-anduhidan qayg'urish, mol-mulkiga xi'nat qilmaslik, yaxshilikka chorlab, èmonlikdan qaytarish husni xulq egalariga xos fazilatlardandir. Shuning uchun farzandingizga ana shu xislatlarni bolalikdan singdirish payida bo'ling;
- farzandingizga o'zgalar bilan muomala chog'ida boshqalarni g'iybat qilish, o'zgalarni mensimaslik, obro'si, boyligi yoki mansabiga qarab munosabat ko'rsatish ham odobsizlik ekanini uqtirib boring;
- yoshi ulug' kishilar, ustozlar bilan muomalada ularning ko'ziga tik boqmay, gaplarini jim tinglash, savollarigagina javob qaytarish, buyruqlarini sidqidildan bajarish ham bolalar qalbiga jo qilishga e'tibor bering.

O'zbek xalqi uchun oila eng muqaddas dargohdir. Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda: - Bunda o'zaro hurmat va qattiq tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko'rsatmasa yaxshi munosib tarzda yashash mumkin emas... O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining, qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarining, qo'shnilarining eson-omonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, oiladagi mehr-oqibat, ota-bola, aka-ukalar, opa-singillar, qarindosh-urug'lar o'rtasidagi munosabat yosh avlodning komil inson bo'lib yetishishiga, hayotda

o‘z qarashiga ega bo‘lishida katta ahamiyatga egadir. Milliy qadriyatlarimiz tizimining eng muhim tarmoqlaridan biri - oilaning hayot abadiyligi va avlodlar davomiyligini ta‘minlovchi maskan ekanligidir. Chunki oila kelajak nasllar uchun betakror tarbiya qo‘rg‘oni, jamiyatning durru gavharidir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, har bir ota ona farzandining rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Farzand nafaqat jismonan, u ham manan, ham ruhan, ham hissiy emotsional, psixologik tomondan ham rivojlanishlarni va o‘zgarishlarni boshdan kechiradi va bu faqat o‘spirinlik paytida emas, chaqaloqligidan boshlab yetuk inson bo‘lgunga qadar har xil davrdan o‘tadi. Shuning uchun hech qachon farzandlarni e‘tibordan chetda qoldirmaslik zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016.
2. Do‘stmuhamedova SH.A., Nishonova Z.T. va boshqalar “Yosh davrlari va pedagogik psixologiya” T.: Fan va texnologiyalar 2013.
3. Абдувалитов Н.Б., Оилада бола психологияси. Замонавий таълим/ Современное образование. Тошкент. - 2017. 31 б.
4. Абрамова Г.С. Практическауа психология. - Москва, «Академический проект», 2001. – 76-78 ст.
5. D.Abdullayeva, R.Yarqulov, N.Ataboyeva “Oila psixologiyasi” T.-2015 y

### Internet sayti:

1. [www.psychology-online.net/docs/practicum1.html](http://www.psychology-online.net/docs/practicum1.html)

Muallifning F.I.SH. (to‘liq)	Safarova Dilnoza Quchqarovna, Alimbekova Madina Abrorovna
Sho‘ba nomi	6. O‘quvchilarda bilishga oid ko‘nikmalarni shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari.
Maqolaning mavzusi	Bolaning turli yosh davrlarida shaxsiy va aqliy rivojlanishi
Lavozimi, ilmiy darajasi, unvoni	O‘qituvchi, amaliy psixolog
Ish joyi	Toshkent shahar XTXQTMOHM “Pedagogika, psixologiya va ta‘lim texnologiyalari” o‘qituvchisi, Sergeli tumani 303 – umumiy o‘rta ta‘lim maktab amaliy psixolog
Telefoni (kodi bilan)	94 410-54-46 99 837-53-87
E-mail	safarova_dilnaza@mail.ru